

О‘ЗBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Ataxanova Gavharoy Anvarbekovna
Abu Ali Ibn Sino nomidagi salomatlik
texnikumi katta o‘qituvchisi

Anotatsiya. Ushbu maqolada aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish tamoyillarini ochib bergan va tahlil qilgan hamda hozirgu kungi statistikasini ko‘rsatib o‘tgan.

Darxaqiqat, yurtboshimiz Yangi O‘zbekistonni har qaysi soha bo‘lmasin, yangicha qarashlar muliylikni yo‘qotmagan holda yurtimizni hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrga moslashtirish aholini kambag‘alligini qisqartirish, har bir soha vakillarini izchil rivojlangan davlatlar bilan hamdostlikda ish olib borishi keraligini va horij tajribalarini o‘zimizda qo‘llash hozirgi zamon talabi ekanligini qayta qayta ta’kidlamogda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (keyingi o‘rinlarda Harakatlar strategiyasi deb yuritiladi) mamlakatning davlat va jamiyat rivojlanishi istiqbolini strategik rejalashtirish tizimiga sifat jihatdan yangi yondashuvlarni boshlab berdi.

➤ Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining (keyingi o‘rinlarda Davlat dasturi deb yuritiladi) tasdiqlanishi strategik rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini amaliy ro‘yobga chiqarishning boshlang‘ich mexanizmi bo‘ldi.

➤ Hozirgi kunda Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan 15 ta qonun va 700 dan ortiq boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

➤ Aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

➤ Aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot

muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan¹.

Ushbu ish ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi ustuvor masalalarni qisman bo'lsada yoritishga bag'ishlanadi

Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish

Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

➤ yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

➤ mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchli sifatini yuksaltirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish. O'zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasi va farovonligini o'rganish maqsadida, davlat statistika organlari tomonidan har yili uy xo'jaliklarida tanlama usulda kuzatuvlar o'tkaziladi.

"Aholi turmush darajasi" tushunchasi juda murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uni tavsiflash uchun biror indikatori tanlash qiyin, shuning uchun bu atamaning turli jihatlarini tavsiflaydigan bir qator statistik ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi. Bugungi kunda aholining turli guruhlarini manfaatlarini hisobga olinmoqda, ish bilan bandlikning samarali tizimi va ish haqi to'lash tizimi, aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish orqali har bir insonga munosib hayot bilan ta'minlanmoqda.

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o'sib borganini yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Quyida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2000-2017 yillarda aholi jon boshiga daromadlar, ish haqi va pensiyalarning yildan yilga o'sib borish tendensiyalarini kuzatish mumkin.

¹ <https://strategy.uz/index.php?news=1064&lang=u>

O'tgan davr mobaynida aholi jon boshiga daromadlar muntazam ravishda oshib borgan va 2017 yil ma'lumotlari bo'yicha daromadlar 2000 yildagi darajasiga nisbatan 13,2 marta real oshgan. Shuningdek, ushbu davr oralig'ida o'rtacha ish haqi hamda pensiyalar miqdori mos ravishda 24,3 va 18,6 marta ortgani kuzatildi tarkibidagi asosiy manbalaridan hisoblangan ish haqi hamda pensiyalarning o'sish sur'atlari pasaygan bo'lib, bu holat aholining umumiy daromadlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

O'z navbatida, daromadlar tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning ulushi 68,5% ni (2010 yilda 71,6 %), transfert shaklida olingan daromadlarning ulushi 25,2 % ni (2017 yilda 24,3 %), mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 4,1 % ni (2010 yilda 2,3 %), shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi esa 2,2 % ni (2017 yilda 1,8 %) tashkil etgan. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar ulushi ko'payishining asosiy omili bo'lib yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini oshirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida yuzaga kelganligidir. ¹

Kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida aholining kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 2017 yilda 55,7 % ni tashkil etdi.

2017 yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahrida - 12,7, Navoiy - 9,0, Buxoro - 6,6, Toshkent viloyatlarida - 6,0 mln.so'm qayd etilganligi kuzatildi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sish sur'ati Xorazm viloyatiga (16,0 %) to'g'ri keladi. Shuningdek, Namangan viloyati (13,5 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (12,6 %), Andijon viloyati (11,7%), Toshkent shahri va Surxondaryo viloyatlarida (9,6%).

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish.

Aholini ijtimoiy himoya qilish – bu davlatning bevosita aniq maqsadli, aholining normal yashash sharoitlarini ta'minlovchi kafolatlar tizimidir.

Aholini ijtimoiy himoya qilish keksalikni, mehnatga layoqatligini yoki boquvchisini yo'qotishni sug'urtalash (pensiya ta'minoti), kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar (bolalar uchun nafaqalar), vaqtinchalik ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (ishsizlik nafaqalari), moddiy ta'minlanganligi va xizmatlarini hisobga olgan holda aholining ayrim toifalari uchun imtiyoz va qulayliklar (patronaj xizmatlari ko'rsatish, mahsulot, dori-darmonlarni yetkazib berish va h.) berish, onalikni himoya qilish (tug'ruqgacha va tug'ruqdan keyingi mehnat ta'tillari), salomatlikni sug'urtalash (vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqalari), ta'lim olayotgan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash (stipendiyalar), nogironlikning oldini olish va mehnat qobiliyatini tiklash (nogironlarni reabilitatsiya qilish, protez-ortopedik markazlar) tizimi orqali ta'minlanadi.

- pensiyalar;
- ijtimoiy nafaqalar;
- imtiyozlar, afzalliklar va xizmatlar;
- bir martalik (tizimli bo'lmagan) moliyaviy yordamlar

Kam ta'minlangan oilalar farzandlari – bu jami daromadlari har bir oila a'zosiga taqsimlanganda rasmiy belgilangan eng kam miqdorga etmaydigan oilalardagi mehnatga layoqatli yoshga yetmagan bolalardir. Ushbu turdagi shaxslarning ijtimoiy himoyasi bolalarga beriladigan nafaqalar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda parvarishga muhtoj bo'lgan yolg'iz va keksa fuqarolar mavjud. Sog'liqni saqlash vazirligining tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'limlari mavjud bo'lib, ular 2017 yilda 15302 kishiga xizmat ko'rsatgan.

Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam berish, yosh bolali oilalarga farzandi 2 yoshga yetguncha nafaqalar berish, shu bilan birga 14 yoshga to'lmagan bolali oilalar uchun ijtimoiy nafaqalar belgilandi. Mahallalarda Respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobiga, shuningdek korxonalar, tashkilotlar va alohida jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan mablag'lar hisobiga maxsus fondlar tashkil etildi².



Ushbu ish ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga

² <https://strategy.uz/index.php?news=1065&lang=uz>

oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi ustuvor masalalarni qisman bo'lsada yoritishga bag'ishlanadi.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

- davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;
- mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;
- «Elektron Hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: "SHarq" nashriyot matbaa kontserni, 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.- T: O'zbekiston, 1992.-78 b.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishhga xizmat etsin.-T: O'zbekiston, 1998.-30 b.
4. N.N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y.
6. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.